

O‘ZBEK XALQ OG‘ZAKI IJODIDA “OY” KONSEPTINING SEMANTIK VA RAMZIY TALQINI

Sharipova Bahora Odiljonovna, Navoiy davlat universiteti Tillar
fakulteti “Ingliz tili, amaliy fanlar” kafedrasida o‘qituvchisi

THE SYMBOLIC AND PSYCHOLOGICAL FORMATION OF THE “MOON” CONCEPT IN UZBEK ORAL FOLKLORE

Sharipova Bahora Odiljonovna, Navoiy State University, Faculty of
Philology, Department of Practical English, Lecturer

СИМВОЛИЧЕСКОЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ФОРМИРОВАНИЕ КОНЦЕПТА “ЛУНА” В УЗБЕКСКОМ НАРОДНОМ ФОЛЬКЛОРЕ

Шарипова Бахора Одиљоновна, преподаватель кафедры
практического английского языка филологического
факультета Навоийского государственного университета

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek xalq og‘zaki ijodida “oy”
konseptining semantik va ramziy talqini tahlil qilinadi. Tadqiqotda
folklorning turli janrlari — qo‘shiqlar, laparlar, ertaklar, rivoyatlar,
maqollar va topishmoqlar asosida oy obrazining ko‘p qatlamli ma‘nolari
ochib beriladi. Oy konsepti go‘zallik, muhabbat, sadoqat, ruhiy holat, ayollik va onalik kabi tushunchalar bilan
bog‘liq holda yoritiladi. Shuningdek, maqolada arxetip nazariyasi (C.G.Jung) va mifologik yondashuv
(M.Eliade) asosida oy obrazining kollektiv ong’dagi o‘rni tahlil etiladi

Kalit so‘zlar: oy konsepti, folklor, semantik tahlil, ramziy ma‘no, arxetip, mifologiya, go‘zallik,
muhabbat, o‘zbek xalq og‘zaki ijodi, ramz, poetik obraz, madaniy fenomen.

Abstract: This article analyzes the semantic and symbolic interpretation of the concept of the “moon”
in Uzbek folklore. The study examines various folklore genres, including songs, lapars, fairy tales, legends,
proverbs, and riddles, revealing the multi-layered meanings of the moon concept. The moon is interpreted as a
symbol associated with beauty, love, loyalty, emotional states, femininity, and motherhood. The research is based
on archetypal theory developed by Carl Jung and the mythological approach of Mircea Eliade, which allows for
a deeper understanding of the moon as a cultural and psychological phenomenon

Key words: moon concept, folklore, semantic analysis, symbolism, archetype, mythology, beauty, love,
Uzbek oral tradition, cultural phenomenon.

Аннотация: В данной статье рассматривается семантическая и символическая
интерпретация концепта “луна” в узбекском фольклоре. Исследование основано на анализе различных
жанров устного народного творчества, таких как песни, лапары, сказки, легенды, пословицы и загадки,
что позволяет выявить многослойность значений данного концепта. Луна интерпретируется как
символ красоты, любви, верности, эмоционального состояния, женственности и материнства.
Теоретической основой исследования послужили архетипическая теория Carl Jung и мифологический
подход Mircea Eliade. В результате установлено, что концепт луны в узбекском фольклоре выступает
не только как эстетический образ, но и как важный элемент, отражающий человеческое сознание и
мировоззрение.

Ключевые слова: концепт луны, фольклор, семантический анализ, символика, архетип,
мифология, красота, любовь, узбекское устное народное творчество, культурный феномен.

KIRISH. Oy – qadimdan insoniyat uchun
alohida ahamiyatga ega bo‘lib, faqat astronomik
obyekt sifatida emas, balki ma‘naviy va falsafiy ramz
sifatida ham qabul qilingan. Uning fazalari, tunda nur

sochishi, tabiat jarayonlari bilan bog‘liqligi odamlar
tasavvurida oyga chuqur ma‘no yuklatgan (Eliade,
1987). Ayrim xalqlarda unga katta kuch deb
qaralgan, hattoki sig‘inilgan.



<https://orcid.org/0009-0002-4358-0706>
e-mail:
bahora@nspi.uz

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida ham oy obraziga katta semantik yuk berilgan. U go‘zallik, muhabbat, sadoqat va ruhiy holatlarning ifodachisi sifatida namoyon bo‘ladi (Turaqulov, 2018; Saidov, 2004). Bu ma‘nolarning barchasi xalqning tiliga va albatta adabiyotlarga ko‘chgan.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodiga oid qo‘shiqlar, ertaklar, rivoyatlar, maqollar va topishmoqlar semantik va kontekstual jihatdan o‘rganilib kelinmoqda. Jumladan, xalq qo‘shiqlarida oy – go‘zallik timsoli sifatida tez-tez uchraydi. Masalan, “Oydek yuzingni ko‘rganlar hayratda qolur” tarzidagi ifodalar ayol go‘zalligini oyga qiyoslaydi (Saidov, 2004, b. 145). Shuningdek, zamonaviy qo‘shiqlarda ham oy tasviri hali-hanuz mavjud:

“Bugun oy chiqdi horg‘in, onajonim sog‘indim.

Oymomo aytgin rostin, uni ko‘rasan doim, omonmi chiroyligim...”

Ushbu parchada oy obrazi kommunikativ simvol ya‘ni xabar yetkazuvchi, psixologik arxitep – ona obrazida va emotsional trigger – sog‘inchni kuchaytiruvchi sifatida namoyon bo‘lgan. Shuningdek, ushbu parchada “Oy” tabiat jismi emas ona, sog‘inch, umid ramzlariga aylangan.

MUHOKAMA. Xalq o‘zaki ijodiga nazar solsak va semantik tahlil qilsak, muhabbat haqidagi laparlarning birida quyidagi jumla mavjud.

*Oy yuzli yorim, kelgin yonimga,
Mehringni sochgin mening jonimga...*

Bu yerda “oy” mahbubaning yuziga qiyos qilib, uning go‘zal va nurlu ekanini bildirgan. Ya‘ni “oy” go‘zallik etaloni. Oy hozirga qadar eng oliy go‘zallik mezoni sifatida sanalib kelingan. Ushbu parchada oy go‘zallik, oy nuri esa muhabbat va mehr ramziy ma‘nolarini ifodalagan. “Oy yuzli” iborasi bu yerda ideal husn egasi sifatida tasvirlagan. Mahbuba ushbu parchada oydek komil, go‘zal sifatida poetik ideallashtirilgan. Oy ushbu misrada estetik simvol, ya‘ni go‘zallik ifodasi, emotsional simvol sifatida mehr-muhabbat ifodalangan bo‘lsa, mahbubaning yuzini oyga qiyoslab, metaforik qiyoslash ham ishlatilgan.

Epik janrlarimizda ham oy ramzi bor. “Alpomish” dostonida Barchinoyning go‘zalligi oyga tenglanib, yuzidan nur taralishi tasvirlanadi (Alpomish, 1958, b. 56). “Go‘ro‘g‘li” dostonida esa Oy barchin obrazi orqali oy ayollik va latofat belgisi sifatida ko‘rsatiladi: “Oy barchin yuzini ko‘rganlar oyni ko‘rgandek bo‘lur” (Go‘ro‘g‘li, 1961, b. 78) kabi metaforik qiyoslashlar orqali go‘zallikni,

beg‘uborlikni ifodalovchi parchalar ko‘plab uchraydi. Maqollarda oy ramziy va umumlashgan ma‘noda ishlatiladi. “Oy ko‘rgan ko‘zga quyosh ortiqcha emas” degan maqol go‘zallik va idrok haqidagi tasavvurlarimizni ifodalaydi (Saidov, 2004, b. 201). Bu maqolda inson tabiati haqida gap ketgan, bunda inson doimo yaxshisidan ham a‘lorog‘ini qabul qilishga tayyor turishi yoki boshqacha tushuntirganda go‘zallikdan keyin yana go‘zallik istashi ma‘nosi ifodalangan. Maqolda oy estetik emotsional qoniqish, quyosh esa yuqori darajadagi kamolot ramzi sifatida ifodalangan. Yaxshilik, yoxud go‘zallik hech qachon ortiqcha bo‘lmaydi, degan ma‘noni ifodalagan.

Topishmoqlarda oyning tabiiy xususiyatlari obrazli tarzda aks etadi. Masalan, “Tunda chiqadi, kunduz yo‘q, osmon kezib yuradi” – bu oyning davriyligi va harakatini ifodalaydi (Saidov, 2004, b. 230). Ushbu topishmoqdagi oy chiqishi va botishi bu vaqtning o‘tishini, hayotning aylanma xarakterini ifodalaydi. Shu misollar oy konseptining folklor janrlari orasida turlicha ramziy va semantik qatlamlarda namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning nazariy asoslari arxetip nazariyasi va mifologik yondashuvdan olingan. Jung nazariyasiga qaraganda, oy kollektiv ongda arxetip bo‘lib, ayollik, onalik, ichki sezgi va ruhiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq. O‘zbek folkloridagi “oydek yuzli” iborasi nafaqat tashqi go‘zallik, balki ichki poklik, nozik ruhiy holatni ifodalaydi. “Alpomish” dostonida Barchinoyning oyga qiyoslanishi – nafaqat go‘zallik, sadoqat va ma‘naviy poklikni ham aks ettiradi. Bu Jungning “anima” arxetipi – ayollik va ruhiy sezgirlik timsoli bilan uyg‘un keladi.

Eliade fikriga ko‘ra, oy qadim madaniyatlarda muqaddaslik va kosmik tartib ramzi sifatida qabul qilingan (Eliade, 1987, p.89). Oy fazalari tug‘ilish, o‘shish, so‘nish va qayta tiklanishni ifodalaydi, bu esa inson hayotining siklik tabiatiga o‘xshatiladi. O‘zbek rivoyatlarida sadoqatli yoki pok insonning oyga aylanishi haqidagi syujetlar bor. Bu oy obrazining ilohiy mukofot va ruhiy komillik timsoliga aylanishini ko‘rsatadi (Saidov, 2004, b.178).

Qiyosiy tahlilda oy obrazining turli madaniy kontekstlardagi umumiy va maxsus xususiyatlar ham ochildi (Leeming, 2005). Yunon mifologiyasida Selene – oy ma‘budasi, go‘zallik va ilohiylik timsoli. Hind mifologiyasida Chandra – oy xudosi sifatida vaqt va hayot sikllari bilan bog‘liq (Leeming, 2005, p. 230). O‘zbek folklorida ham oy hayot, ruhiyat va tabiat sikllari bilan bog‘liq universal

ramz sifatida namoyon. Lekin o'zbek madaniyatida oy estetik va lirik obraz sifatida rivojlangan – bu milliy o'ziga xoslikni ko'rsatadi.

NATIJALAR. Tahlil natijalariga ko'ra, o'zbek folklorida oy konsepti murakkab semantik tizim sifatida shakllangan:

Birinchidan, oy – ayollik va onalik bilan bog'liq arxetipik ramz. Bu tabiatdagi siklik xususiyatlar bilan bog'liq (Krippner & Combs, 2002).

Ikkinchidan, lirik janrlarda oy – estetik mezon. Inson go'zalligi va hissiy holatini ifodalash vositasi (Turaqulov, 2018).

Uchinchidan, epik va narrativ janrlarda oy – ilohiy kuch, poklik va mukofot ramzi. Ba'zida insonning ma'naviy yuksalishi bilan bog'liq obraz sifatida tasvirlanadi (Eliade, 1987).

Maqol va topishmoqlarda oy tabiiy hodisa sifatida ishlatilsa-da, uning harakati ramziy fikrlash elementini ko'rsatadi (Saidov, 2004).

Ushbu natijalar oy obrazining folklorida ham badiiy bezak, ham inson ruhiyati va dunyoqarashini aks ettiruvchi vosita ekanligini ko'rsatadi. Masalan, “Oydek nur sochmoq” kabi iboralar o'zining ruhiyatga ijobiy ta'sirini ifodalaydi. Bu yerda oy – osmondagi oddiy jism emas, balki ichki holatni yorituvchi ramz.

Jung nazariyasiga muvofiq, oy oning chuqur qatlamlaridagi his-tuyg'ular, ichki sezgilar bilan bog'liq obraz. Sevgi haqidagi qo'shiqlarda o'zining ko'p tilga olinishi bejiz emas. “Oyga qarab seni esladim” kabi ifodalar ichki kechinmalarni o'zining obrazida tashqariga chiqaradi. Bu o'zining ruhiyatimizdagi yashirin hisslarni yuzaga chiqarishga qodir ramz ekanini ko'rsatadi.

Eliade asosida esa, oy – muqaddaslik va tabiat tartibi bilan bog'liq. Qadimda odamlar oy chiqishi yoki to'lin oy davrini alohida kuzatib, muhim hodisa deb bilishgan. Ba'zi hududlarda to'lin oy paytida tilak yoki ibodat qilish odat edi – bu o'zining muqaddas kuch sifatida qabul qilinishi dalolatidir.

Oy obrazining ayollik bilan bog'lanishi juda tabiiy. Qizlarni “oydek go'zal” deb ta'riflash – nafaqat tashqi ko'rinishni, balki muloyimlik, poklik va noziklikni ham anglatadi. Bu qadim insonlar tabiat va inson o'rtasidagi o'xshashlikni chuqur his qilganini ko'rsatadi.

XULOSA. Oy obrazi orqali xalq nafaqat go'zallikni, balki ruhiy holat, tabiat va hayot uyg'unligini ham ifodalagan. Shu sababli, oy konsepti folklorida estetik obrazdan ko'ra chuqur tafakkur qatlamlarini aks ettiruvchi madaniy hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

Natijada shuni aytish mumkinki, o'zbek folklorida “oy” chuqur ramziy va ruhiy mazmunga ega badiiy timsol. U inson tafakkurining estetik, psixologik va mifologik qatlamlarini mujassam etadi (Turaqulov, 2018; Jung, 1964). Oy xalq ongida barqaror arxetip sifatida shakllangan va go'zallik, poklik, muhabbat, ruhiy o'zgarishlarni ifodalashda foydalaniladi (Eliade, 1987). Shu sababli, oy konseptini tadqiq qilish madaniyat hamda tafakkur o'rganishida muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boyce-Davies C. *Black Women, Writing and Identity: Migrations of the Subject*. – London: Routledge, 1999. – 320 p.
2. Eliade M. *The Sacred and the Profane: The Nature of Religion*. – New York: Harcourt, 1987. – 256 p.
3. Jung C. G. *Man and His Symbols*. – London: Aldus Books, 1964. – 320 p.
4. Krippner S., Combs A. *The Mythic Path: Discovering the Guiding Stories of Your Past – Creating a Vision for Your Future*. – Wheaton (IL): Quest Books, 2002. – 300 p.
5. Leeming D. A. *The Oxford Companion to World Mythology*. – Oxford: Oxford University Press, 2005. – 480 p.
6. Needham J. *Science and Civilisation in China*. Vol. 2: History of Scientific Thought. – Cambridge: Cambridge University Press, 1956. – 696 p.
7. Saidov A. *O'zbek xalq og'zaki ijodi*. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2004. – 280 b.
8. Saidov S. *O'zbek xalq ijodi*. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2004. – 260 b.
9. Turaqulov A. *Xalq og'zaki ijodi va ramzlar olami*. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2018. – 240 b.
10. Turaqulov O. *O'zbek xalq estetik tafakkurida ramz va timsollar*. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2018. – 220 b.